SIFATNI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIZMLARNING O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODIDAGI O‘RNI

Ubaydullayeva Rayhon Abdujalilovna
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
rayhon121274@gmail.com
Abduqodirova Kamola Baxtiyor qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
2-bosqich talabasi
kamolaabfuqodirova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodida uchraydigan sifatni ifodalovchi frazeologizmlar ko‘rib chiqiladi. Frazeologiyalarni tarjima qilishda milliy va madaniy omillarga e’tibor beriladi. Shuningdek, bu boradagi ayrim muammolar yoritilib, misollar yordamida tushuntiriladi.

Kalit so’zlar. Milliy-madaniy, misollar, frazeologizmlar, og‘zaki ijod, muammolar, sifat, tarjima, tushuncha.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi bir necha yillar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan[2,14-b] bo‘lsa-da, unda juda ko‘plab sifatni ifodalovchi frazemalarni uchratish mumkin. Bu xalq og‘zaki ijodi xalqning turmush tarzini, dunyoqarashini, orzu va umidlarini, dard va quvonchlarini yaqqol tasvirlaydi. Xalq og‘zaki ijodiga biz dostonlar, maqollar, topishmoqlar, afsonalar, rivoyatlar, latifalar ertaklar va xalq qo’shiqlarini kiritishimiz mumkin[2,9-b]. Shuningdek, bu xalq og‘zaki ijodining ba’zi namunalarida foydalanilgan frazemalar va tarixiy so‘zlar yo‘qolib borishining oldini olish va kelgusi avlodlarga yetkazishda o‘rni katta.

Frazeologizmlar - tilshunoslikning bir muhim bo‘limi hisoblanadi[7,54-b]. Unda insonlarning his-tuyg‘ularini, kayfiyatini, shaxsiy va ijtimoiy holatlarini ifodalashi mumkin. Sifatni ifodalab keluvchi frazeologizmlardan xalq og‘zaki ijodida ham keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Tilshunoslikda, frazeologizmlarga xalq og‘zaki ijod namunasi sifatida ham qarashimiz mumkin. Chunki, ular ham asrlar davomida insonlarning turmush tarzini va dunyoqarashini ifodalashda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va insonlar o‘rtasida shakllanib borgan. Sifatni bildiruvchi frazeologizmlar, asosan, obrazlilik, kuchaytirish, baholash, emotsional va boshqa holatlarini uchratishimiz mumkin[7,78-b]. Shuningdek, ular tasvirli yo‘l bilan ifodalanadi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodidan ayrimlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak[2,145-b]:

Frazeologiyalar	Ma‘nosi	Belgilayotgan sifat
Qo‘li ochiq	saxiy	saxovatlilik
Ko‘ngli to‘q	sabrli, minnatdor	barqarorlik
Ko‘ngli dengizdek	saxovatli	mehribonlik
Og‘zi qulog‘ida	juda xursand	quvonchli holat
Boshi osmonda	g‘ururlangan	mag‘rurlik
Yuragi keng	bag‘rikeng	insonparvarlik

Ular insoniy sifatlarni ifodalash bilan birga unga hissiy rang ham bermoqda. Frazeologizmlar sifatlarni ifodalashda bir qancha bosqichlarni bajaradi. Kuchaytirish (“oq yuzli”, “tosh yurak”, “og‘zi qulog‘ida”) belgining ma’nosini kuchaytirishga xizmat qilyapti[4,61-b]. Baholash (“ko‘ngli to‘q” –ijobiy, “ko‘zi qizil”-salbiy) orqali qahramonga axloqiy baho berilmoqda[4,63-b]. Obrazlilik esa qahramonning ichki dunyosini tasvirlaydi. Masalan, “yuragi po‘latdek” – jasurlikni kuchli obrazda yoritmoqda[4,70-b]. Emotsionallik-kitobxonni his tuyg‘ulari orqali qahramonning nutqini jonlantira olishlikdir[4.75-b]. “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Go‘rog‘li” va “Ravshan” kabi dostonlarda keng qo‘llaniladi.

Sifatni ifodalovchi frazeologiyalarni maqollar tasnifida ko‘rib chiqsak: “qo‘li ochiq – elga yoqadi” va “tosh yurakning ko‘zi yosh ko‘rmas”[3,54-b] kabi misollarni oladigan bo‘lsak, bu iboralar orqali kim yomon yoki kim yaxshi ekanligini axloqiy sifatlar bilan baholayapti. Maqollarda, asosan, frazeologizmlar metafora va sifatni baholovchi vazifasida keladi. Shuningdek, frazeologizmlar bilan bir nechta olimlar shug‘ullangan. Bu soha bilan V.V.Vinogradov, A.V. Kunin, A.M. Babayev, Sh. Rahmatullayev va M. Asqarova kabi tilshunos olimlardir. Vinogradov frazeologiyaning nazariy poydevorini qo‘yib bergan bo‘lsa, Kunin uni mustaqil fan sifatida asoslagan[6,5-8-b]. Sh. Rahmatullayev esa o‘zbek frazeologiyasining asoschisi bo‘lib, uni nutq bilan bog‘lagan va milliy til tizimida mukammal o‘rgangan.

Hozirgi kunda sifatni ifodalovchi frazeologizmlarda bir qancha muammolar mavjud. Birinchidan, frazeologizmlarni umumiy tilda o‘rganish mumkin, ammo sifatni ifodalovchi frazeologiyalarni o‘rganishda alohida ahamiyat berilmagan. Ikkinchi sabab esa, frazeologik lug‘atlar mavjud bo‘lsa ham, ularning ba’zilari janrli tahlil (doston, ertak, maqol) asosida tuzilmagan[4,82-b] va natijada xalq og‘zaki ijodidagi iboralar yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Uchinchidan esa, ko‘plab darslik va manbalarda frazeologiyalar tahlil darajasida emas, balki misol sifatida berilgan[7,56-b]. Shu boisdan, o‘zbek tili frazeologizmlarida sifatni ifodalovchi birliklar bo‘yicha maxsus tematik lug‘at tuzish va ularni badiiy asarlarda tahlil qilish dolzarb masala sanaladi.

Frazeologizmlar – tildagi barqaror so‘z birikmasi bo‘lib, ularning ma’nosi jihatdan butunlikni hosil qiladi va tarkibidagi so‘zlar ma’no mustaqilligini yo‘qotadi[4,72-b]. Frazeologiyalar orqali xalqning hayotini, milliy – madaniy qadriyatlarini va tafakkurini yaqqol ochib beradi[4,85-b] va insonlarning fe’l –atvorini, tashqi ko‘rinishlarini ifodalashda, tildagi badiiy estetik imkoniyatlarini boyitishda katta ahamiyatga ega.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari ko‘p bo‘lsa-da, ulardan biri bo‘lgan “Alpomish” dostoni sifatida sifatni ifodalovchi frazeologizmlarga e’tibor qaratsak. Masalan:

- Ko‘p odamlarni ham xafa qilar, nima bo‘lsa musofir-da, boylarning ko‘nglini ozor qilar[1,46-b].

Bu yerda “ko‘ngli norozi bo‘lish” – xafa bo‘lish, ranjish ma’nolarini ifodalamoqda.

- Oh urganda xasta ko‘nglin xushladi[1,107-b].

“Ko‘ngli xushlandi” frazeologizm bo‘lib, xursand bo‘ldi, mamnun bo‘ldi ma’nolarini ifodalamoqda.

- Shul zamon egniga qoqib tashladi[1,107-b].

Uzoq yillik g‘am – tashvishlaridan xalos bo‘ldi ya’ni yengil tortdi, taskin topdi degan ma’nolarini ifodalamoqda.

- Alpomish bandi ketganiga necha vaqt o‘tgan, hammaning ham ko‘nglidan chiqib ketgan[1,330-b].

Ko‘nglidan chiqib ketmoq frazeologizm bo‘lib, bu yoqtirmay qo‘ygan his- tuyg‘usini ifodalab kelmoqda.

“Alpomish” dostonidagi qahramonlarni fazilatlari va xarakterini sifatni ifodalovchi frazeologizmlar orqali yoritadigan bo‘lsak, ular quyidagicha:

Alpomish – yuragi tog‘dek, ko‘zi yiltillab qaragan, dadil.

Barchinoy – ko‘ngli daryo, yuzini yorug‘ tutgan.

Qalmoqshoh – yuzini burib, qat’iy.

Qultoy – ko‘ngli hushlangan.

Frazeologizmlar nafaqat balki sifatni balki turli grammatik ma’no turlarini ifodalashi mumkin. Ular sifat, harakat (fe’l) holat, miqdor, his-tuyg‘u, vaqt va munosabat kabi ma’nolarni bildiradi.

Harakatni (fe’l) ifodalovchi frazeologizmlar amal , harakat, holatni bildiradi.(ko‘z yumdi, bosh ko‘tardi). Holni ifoadalovchilar amal qanday bajarilganini bildiradi (yashin tezligida, ko‘z ochib yumguncha). Miqdor – darajani ifodalagan frazeologiyalar esa ko‘pligi, kamligi, yoki ortiqligini bildiradi. (bir og‘iz gap, ko‘pdan beri). Vaqtni bildirib kelgan frazeologiyalar bo‘lsa, amal yoki hodisaning vaqtini bildiradi (bir mahal, tong otmasdan). His-tuyg‘uni ifodalagan frazeologiyalar, asosan, ruhiy kechirma yoki hissiyotni ifodalaydi (ko‘ngli to‘ldi, yuragi ezildi). Ichki hissiy munosabatlarini ifodalaydigan frazeologiyalar (bosh egdi, ko’nglidan o’tdi) munosabatni ifodalashini ko‘rishimiz mumkin[7,92-93-b].

Umumiy qilib olganda, tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bu- frazeologiyadir. Asosiy vazifalariga tildagi frazeologizmlarni yig‘ish va o‘rganish, ularning ma’no, tuzilish, uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish, leksik birlik sifatida izohlash, badiiy, so‘zlashuv va yozma nutqdagi o‘rnini ifodalashdan iborat. Shuningdek, tilda ifoda go‘zalligini oshirishi, milliylikni, dunyoqarashni, urf-odatlarni aks ettirishi, nutqni boyitishi va jonlantirishi mumkin. Sifat frazeologizmlar predmetning belgisi, xususiyati, tashqi ko‘rinishi yoki ichki holatini ifodalovchi barqaror iboralardir. Bular oddiy so‘zlar o‘rnida kelib, ko‘chma ma’no ifodalaydi[5,343-b]. Bularni xalq og‘zaki ijodi namunalarida ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq og‘zaki ijodi “Zukko kitobxon” nashriyoti, 2023
2. Zaripov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent, 1990.
3. Jo‘rayev R. “O‘zbek xalq maqollari semantikasi”, 2010
4. Madrahimov A. O‘zbek tilining frazeologiyasi. – Toshkent, 2014.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 11 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004.
6. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 1978
7. Nurmonov A. “O‘zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi”-Toshkent: O‘qituvchi, 2001